

**SHE'RIY NUTQDA BO'G'INNING LINGVOPOETIK O'RNI (IQBOL MIRZO
SHE'RIYATI MISOLIDA)****Hamraqulova Guluzra Dilmuradovna***Andijon davlat pedagogika instituti**Andijon, O'zbekiston.**Ilmiy rahbar: prof.***Nabiyeva Diloru Abbulhamidovna.**

Annotatsiya: *Segment birliklarning biri bo'lgan bo'g'in she'r tuzilishi, ritm, ohangdorlik, qofiya kabilargaasos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa bo'g'in barmoq vazni uchun muhim hisoblanadi. Barmoqda bo'g'inlarning miqdori va ritm, pauzaning bir xildagi me'yoriyligi hisobgaolinadi. Barmoq she'r tizimida misralardagi bo'g'inlar turoqlarga birlashadi, turoqlar esa yig'ilib, har bir misradagi umumiy bo'g'inlar miqdori aniqlanadi. Demak, bo'g'in barmoq tizimida ritmni uyushtiruvchi elementlardan biri va eng muhimidir.*

Kalit so'zlar: *Segment birlik, bo'g'in, barmoq vazni, ritm, hiyo, turoq, ohang.*

Segment birliklarning biri bo'lgan bo'g'in she'r tuzilishi, ritm, ohangdorlik, qofiya kabilargaasos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa bo'g'in barmoq bazni uchun muhim hisoblanadi.

Bo'g'in takrorlanishi bilan ekspressivlikni hosil qiladi. Masalan, ko'm-ko'k, *sap-sariq, qip-qizil, to'ppa-to'g'ri* soz'larida belgining mo'ljaldan ortiqligini, kuchliligini fonetik vosita, ya'ni bosh bo'g'inni so'z oldidan takrorlash orqali yuzaga keltiriladi.

Huvillagan dunyo, huvillagan qalb,

Na quvonch, na rayhon, na g'am, na yalpiz...

Qip-qizil qumlarni kechdim yuz yillab,

O'zim bilan o'zim yashadim yolg'iz.

(Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman)

Lirik qahramonning muayyan ruhiy holati, ya'ni *huvillagan qalb, yolg'izlik* tushunchalariga uyqash kelgan *qip-qizil qumlarni kechdim yuz yillab* misrasi fonetik birliklarning poetik imkoniyatlarini yorqin ko'rsatishgaxizmat qiladi. *Qizil* so'zining me'yordan ortiqligini ifodalash uchun birinchi bo'g'in so'z oldidan orttirilgan. *Qip-qizil qumlar* birikmasi ramziy ma'nodacheksiz sahroni, ya'ni sahro qalban yolg'izlik hissiyotini ko'rsatib beradi.

Men yana...

Bir tovon tegishiga zor,

Ko'chada sochilib yotgan tuproqman,

Olov mavj sochlariga qo'nolmagan qor,

Bir to'lqin zulflarga intiq taroqman.

Birgina bilakni bog'lay olmagan,

Bilakuzukdirman, quchog'im bo'm-bo'sh,
Faqatgina bir qiz yodlay olmagan
Bir so'zman –
Egasiz tashlandiq tovush...
Ancha bo'ldi bunga.
 (Iqbol Mirzo. Iqbol)

Ushbu misolda lirik qahramonning ruhiy holati “ko‘chada sochilib yotgan tuproq, sochga qo‘nolmagan qor, bir to‘lqin zulflarga intiq taroq” deb, ya‘ni yorning tovoni tekkan tuproqqa, olov mavj sochlarga qyngan qorga, to‘lqin zulflarni taragan taroqqa, bilagidagi bilakuzukka havas qilgani, ularning o‘rnida bo‘lishini orzu qilgani tasvirlangan. *Quchog'im bo'm-bo'sh* birikmasi lirik qahramonning tushkun kayfiyatini kuchaytirib ifodalab beradi.

She‘riyatda bo‘g‘in barmoq vazni uchun muhim hisoblanadi. Barmoq sistemasi ancha qadimdan mavjud bo‘lib, uning qadimgi namunalarini Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida qo‘shug‘ (qo‘shiq) deb nomlangan. Devonda barmoq vaznida yozilgan beshlik, oltilik, ettilik, sakkizlik, o‘nlik, o‘n birlik, o‘n uchlik va o‘n beshlik kabi qo‘shiqlar uchraydi¹⁹.

“Barmoq turkiy tillarning tabiati, fonetik xususiyatlariga to‘la mos keladi. Barmoqda yozilgan she‘rning ritmik xususiyatlarini bo‘g‘inlar sonining tengligigina belgilamaydi, bunda misralarda bo‘g‘inlarning qay tartibda turoqlanishi ham katta ahamiyatga ega. Holbuki, barmoq yuzlab vaznlarni o‘z ichiga olgan she‘r tizimi bo‘lib, uning ritmik-intonation imkonlari juda kengdir”²⁰.

Barmoqda bo‘g‘inlarning miqdori va ritm, pauzaning bir xildagi me‘yoriyligi hisobga olinadi. Masalan:

<i>Hilol yanglig' / ochiq qoldi / so'roqlarim,</i>	4+4+4
<i>Ellar quv nab / quv nab titdi / varoqlarim.</i>	4+4+4
<i>O'ynab - o'ynab / to'kildilar / yaproqlarim,</i>	4+4+4
<i>Yaproqlarim / birin-ketin / ketaverdi,</i>	4+4+4
<i>Ketgan sari / azoblarim / ortaverdi.</i>	4+4+4

(Iqbol Mirzo. Azoblarim.)

Bu misolda hijoning uzun-qisqalik belgisining ahamiyatidan ko‘raohangning ritmik me‘yoriyligi, to‘xtamning aynan bo‘g‘inlar miqdoriga moslashishi ahamiyatlidir. Barmoq sistemasining fonetikasi turli funkstional-stilistik ma‘nolar anglatishgaxizmat qilsagina, uning qimmat, jamiyat va til taraqqiyotidagi o‘rni yuksaladi. Tilning taraqqiyot darajasi faqatgina undagi sozlarning miqdoriga qarab belgilanmaydi, balki turli ma‘no va uslubiy b‘yoqlarni ifodalovchi s‘zlar bilan y‘zaroaloqada b‘ylishi, fikrning

¹⁹Махмуд Қошгарий. Девони луғотит турк. – Тошкент: Фан, Т.1.1960. 499-б., Т.2.1961.-427-б., Т.3. 1963. – Б. 66.

²⁰ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б. 65.

turli-tuman va nozik qirralarini ifodalovchi vositalarga qanchalik boyligi bilan ham belgilanadi.

O.S.Axmanova ritmni “Nutqni hosil qilishda tezlashish va sekinlashishning, zo‘rayish va susayishning, cho‘ziqlik va qisqalikning bir me‘yorda almashinishi”²¹, deb izohlaydi va ritmika ritmikani fonetikani bir bo‘limi sifatida nutq qurilishining umumiy qonuniyatlarini o‘rganishini aytadi.

Adabiyotshunoslikda ritmga jiddiy e‘tibor beriladi. Sababi, ritm poetika uchun muhim hisoblanadi. “Ritm – she‘riy nutqdagi muayyan, bir-biriga monand kichik bo‘laklarning izchil va bir o‘lchovda takrorlanib kelishi”²². “She‘riy nutqdagi muayyan bo‘laklarning biror teng vaqt ichida izchil va bir o‘lchovda takrorlanishiga ritm deyiladi. Bir xil birliklarning guruhlanishi va davriy takrorlanishi she‘riy ritmning asosini tashkil qiladi. She‘riy ritm she‘r yaratuvchining his va tuyg‘ularini o‘ziga xos bir tarzda ifodalashga yordam beruvchi nutq hodisasidir”²³ kabi.

Iqbol Mirzoning barmoq vaznida yozilgan quyidagi she‘riy parchasiga yuzlanamiz:

Qushlar/ ko‘klamlarga / yetishgan chog‘da

Menga /qolgan edi / bog‘ning xazoni.

Sokin /sado keldi / shunda tuproqdan:

“Go‘zal / ko‘ra bilmoq / kerak dunyoni”.

(Iqbol Mirzo.Falsafa)

Yuqorida keltirilga 2+4+5 tarzidagi ritmik bo‘laklardan tashkil topgan ushbu she‘r avval qisqa, ya‘ni 2, keyin 4, so‘ngra 5 bo‘g‘inli bo‘laklardan iborat ekanligi, turoq tarkibidagi bo‘g‘inlar sonining tobora ortib borishi barobarida urg‘uning birinchi so‘zlarga tushib, ularning zarb bilan aytilishi va keying so‘zlarda pasayishi she‘rning alohida ohang bilan o‘qilishini ta‘minlagan. Bundan esa, misralarning o‘qilishi va lirik qahramon o‘rtasidagi uyg‘unlikni ko‘rishimiz mumkin.

Har qanday she‘r hijo, bo‘g‘in va ritmning me‘yoriy takrorlanishi asosiga qurilib, evfoniyani yuzaga kelishini ta‘minlaydi, nutqning ta‘sirchanligini oshiradi, emostional-ekspressivlikni kuchaytiradi:

Endi faqat/ sabolarni sog‘inish bor, 4+8

Elas-elas/ navolarni sog‘inish bor, 4+8

Olis-olis/ ziyolarni sog‘inish bor, 4+8

Aks o‘ziman/ sadolarga ketolmayman 4+8

(Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman)

Mazkur misolda ritmik pauza hisobiga 4+8 tartibda 12 bo‘g‘inli she‘riy parchani ko‘rdik. Bunda bo‘g‘inning bunday bo‘linishiga ritmik ohang va to‘xtam sabab

²¹ Axmanova O.S. Словарь лингвистических терминов. - Москва: «Советская энциклопедия», 1966. – С. 388.

²² Хомидий Х. ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари луғати. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1970. – Б. 181.

²³ Хотамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1979. – Б. 258.

bo‘lmoqda. Agar ritmik bo‘linish boshqacha bo‘lsa, albatta, bu ohang va to‘xtamni ham o‘zgartiradi. “She‘riy misralardagi hijo va ruknlar she‘r xarakterini belgilaydi. Odatda, bo‘g‘inlar miqdori kam bo‘lgan she‘rlar engil o‘qilib, bolalar uchun yoziladi. Bo‘g‘inlar miqdorining ko‘pligi she‘r ohangining vazminligini, fikr aytish erkinligini ta‘minlaydi. Bo‘g‘inlarning she‘riyatdagi ahamiyati yana shundaki, ularning miqdoriga qarab she‘r intonastiyasi ham o‘zgaradi”²⁴.

Soching buloq suvidek / barmog‘im aro toshdi, 7+7

Vujuding shamol kabi / qulog‘im aro toshdi, 7+7

Xilolni chiltor etib, / kipriging chaldi cholg‘u, 7+7

Yuragim selob bo‘lib, / qarog‘im aro toshdi: 7+7

“Ko‘zimga ishonmayman, / nahotki o‘zingsan shu?!”7+7

(Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman)

She‘rning o‘qilish ohangiga, to‘xtamiga bog‘liq tarzda 7+7 kabi ajratish mumkin. Bunda ritmik bo‘linish she‘r ohangiga ta‘sir etadi.

“Bo‘g‘inning she‘riyatdagi turoqlarni, ohangdoshlik va musiqiylikni ta‘minlovchi vosita sifatidagi roli katta. U she‘riy misralardagi ritmni yuzaga keltiruvchi asosiy unsurlardan biri, ayni paytda vazn o‘lchovi bo‘lib xizmat qiladi”²⁵.

Iqbol Mirzoning quyidagi she‘riy parchalarini qiyoslab ko‘raylik:

1. *Toshbaqaning yelkasida vaqt,*

Yalmog‘izning xaltasida baxt.

Kunlar o‘tar sudralib, karaxt,

Meni kechir, gunohimdan o‘t.

(Iqbol Mirzo. Meni kechir.)

2. *Chumchuqlar galasi shamolga*

Shamoyil beradi sarosar.

Dil yetdi amallab hamalga,

Dil endi kurtakka barobar.

(Iqbol Mirzo. Xotira.)

Yuqorida keltirilgan bu ikki she‘riy parchani bir-biriga ohang jihatidan solidhtirsak, ularning to‘qqiztalik turkumga mansubligini ko‘ramiz. Shunga qaramasdan bu ikki she‘rning ritmik xususiyatlari bir xil emas. Buning sababi, ularning har birida bo‘inlar turlicha guruhlanib kelmoqda. Qiyoslaymiz:

1. *Toshbaqaning / yelkasida vaqt, = 9*

Yalmog‘izning / xaltasida baxt. = 9

Kunlar o‘tar / sudralib, karaxt, = 9

Meni kechir, / gunohimdan o‘t. = 9

²⁴ Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979., – Б. 288.

²⁵ Жамолхонов Х. Узбек тилининг назарий фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2009., – Б. 162..

2. *Chumchuqlar / galasi / shamolga = 9*

Shamoyil / beradi / sarosar. = 9

Dil yetdi / amallab / hamalga, = 9

Dil endi / kurtakka / barobar. = 9

Barmoq she'r tizimida misralardagi bo'g'inlar turoqlarga birlashadi, turoqlar esa yig'ilib, har bir misradagi umumiy bo'g'inlar miqdori aniqlanadi va misralararo hijolarning nisbati she'rning vaznini belgilashga imkon beradi:

O'rgamchak to'rini/ daryoga soldim, 6+5

Tillo baliq tutib, / ziyoga soldim, 6+5

O'zimning jonimni/ baloga soldim. 6+5

Shu shirin jonimni /saqlagim keldi... 6+5

Oyog'ingni quchib/ yig'lagim keldi. 6+5

(Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman)

Mazkur misolda ham, 6+5 tartibda turoqlangan she'r misralari bir me'yorda, bir o'lehovda muntazam takrorlanmoqda va ritmik ohangni yuzaga keltirmoqda, bu esa she'r musiqiyligini, ta'sirchanligini oshiradi. Demak, "bir xil birliklarning guruhlanishi va davriy takrorlanishi she'riy ritmning asosini tashkil etadi. She'riy ritm she'r yaratuvchining his-tuyg'ularini o'zigaxos bir tarzda ifodalashga yordam beruvchi nutq hodisasidir"²⁶.

Bo'g'in barmoq tizimida ritmni uyushtiruvchi elementlardan biri va eng muhimidir. Barmoqda bo'g'inlar miqdori muhim sanaladi, miqdoriy o'leham birlamchi va intonastion holatiga ko'ra turoqlarga bo'linadi, masalan:

Yu-ra-gim o-qa-di / Far-g'o-na to-mon, 6+5

Ey, ach-chi-g'i shi-rin, / gu-mo-ni a-yon, 6+5

Sev-ging-ga i-sho-nib / ya-shay-man ha-mon, 6+5

O'-zim-ning ho-lim-ga / kul-gim ke-la-di. 6+5

(Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman)

Bo'g'inlarning ma'lum bir me'yordagi ritmik holatini saqlash fonopoetik birlik hisoblangan intonastiya va pauza uchun muhimdir. Demak, intonastiya va pauza ham bo'g'in va turoqning ritmik xususiyatini saqlaydi. "Turoqlar – muzikada ritm birligi, ya'ni biror kuchli ohangning birligi hisoblanadi. Bu termin adabiyotda ritmning bosh urg'u bilan keyingi urg'u oralig'ida qisqa bo'linishini anglatadi"²⁷.

Ma'lumki, bo'g'inlar yig'ilib, takt(turoq)ni yuza keltirsa, taktlar kelishuvi esa fraza (turkum)ni yuzaga keltiradi. Demak, nutqning fonetik bo'linishida eng kichik birlik bo'lgan tovushlar qo'shilishidan bo'g'in tashkil topadi, bo'g'inlar birlashib takt(turoq)ni, ya'ni bo'g'indan kattaroq butunlikni hosil qiladi. Ushbu butunlik poetik

²⁶ Хотамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 258.

ahamiyatga egadir, turoqlar yordamida musiqiylik yuzaga keladi. Bunday musiqiylik bo'g'inlarning miqdoriga asoslanadi va bo'g'inlarning ma'lum intonastion bo'laklari – taktlarga ajratiladi. Taktlarning umumiy hisobdagi miqdori esa fraza (ya'ni, turkum) larning yuqoridagi kabi guruhlanishiga olib keladi, ya'ni bu turkumlar ma'lum intonastion bo'laklarning qo'shiluvidan tashkil topgan kattaroq intonastion davrlar hisoblanib, fonopoetik qatordan yirik birlik sifatida o'rin oladi.

Xulosa qilganda, barmoq tizimining muhim elementi hisoblangan turoqlar she'riy vaznning ham shakli, ham mazmuniy jihatlarini boyitadi, musiqiy ohangda ifodalanishiga, tovush to'liqlinining me'yoriy tebranishigaxizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - Москва: «Советская энциклопедия», 1966. – С. 388.
2. Махмуд Қошгарий. Девонилуғотиттурк. –Тошкент:Фан, Т.1.1960. 499-б., Т.2.1961.-427-б., Т.3. 1963. –Б. 499.
3. Қуроноф Д., Мамажоноф З., Шералиева М. Адабиётшуносликлуғати. –Тошкент: Akademnashr, 2010.–Б. 400.
4. Ҳотамоф Н., Саримсоқов Б. Адабиётшуносликтерминларининг русча-ўзбекча изоҳлилуғати. –Тошкент: «Ўқитувчи», 1979. –Б. 258.
5. Ҳотамоф Н., Саримсоқов Б. Адабиётшуносликтерминларининг русча-ўзбекча изоҳлилуғати. –Тошкент: «Ўқитувчи», 1979. –Б. 258.
6. Ҳомидий Ҳ. ва бошқ. Адабиётшуносликтерминларилуғати. –Тошкент: «Ўқитувчи», 1970. –Б. 228.